



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILAR BOG'LANISHLI NUTQINI SHAKLLANTIRISHDA INSHODAN FOYDALANISH

Farhodova Dilnoza

UrDU Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining bog'lanishli nutqini shakllantirishda inshodan foydalanish ahamiyati ochib beriladi. Unda insho ustida ishlashda mavzu tanlash, uni rejalashtirishda esa og'zaki va yozma insho mavzusini belgilab olish muhim ekanligi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, nutq, bog'lanishli nutq, yozma ish, insho, mavzu, reja.*

Аннотация. *В данной статье раскрывается значение использования сочинения в формировании связной речи учащихся младших классов. Подчеркивается, что важно правильно выбрать тему при работе над сочинением, а также определить тему устного и письменного сочинению при его планировании.*

Ключевые слова: *начальное образование, речь, связная речь, письменная работа, сочинение, тема, план.*

Annotation. *This article reveals the importance of using an essay in forming the connected speech of elementary school students. It is emphasized that it is important to choose a topic when working on an essay, and to determine the topic of an oral and written essay when planning it.*

Key words: *elementary education, speech, connected speech, written work, essay, topic, plan.*

Hozirgi kunda barcha jabhalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga yo'llagan Murojaatnomasida ham xalq ta'limini yanada rivojlantirishga qaratilgan bir qator vazifalar belgilab berildi. Xususan, maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarurligi ta'kidlandi.[1]

Respublikamizda hozirgi kunda ta'lim strategiyasini belgilovchi asosiy yo'nalishlardan biri o'quvchilarda o'zligini anglash, mustaqil fikr va erkinlikni namoyon qilishga imkon yaratish hisoblanadi. Bu borada uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich ta'limning ahamiyati beqiyos. Ayniqsa, undagi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z galar



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan ona tili ta'lim sohasi alohida o'rin tutadi. [2] Pedagogik tajribalardan anglashiladiki, til ta'limidagi to'rtta zaruriy amal - tinglash, so'zlash, o'qish va yozishning mutanosib tarzda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinflarda olib boriladigan ta'limiy ishlarning asosiy yo'nalishlaridan biri ham o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, bog'lanishli nutq ko'nikmasiga ega bo'lish hamda ularda muomala odobini shakllantirish hisoblanadi.

Ma'lumki, nutq kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi.

Boshlang'ich ta'limda ona tili dasturida nafaqat o'quvchilar og'zaki va yozma nutqi shakllantirish va rivojlantirish, balki bog'lanishli nutqini o'stirish vazifasi ham nazarda tutiladi.

Ilmiy-metodik adabiyotlarda fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mavzuni ifodalaydigan, logik va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, mustaqil, tugallangan va o'zaro bog'langan ma'noli qismlarga bo'linadigan nutq bog'lanishli nutq ekanligi ta'kidlaniladi. [4.321]

Bog'lanishli nutq birligi sifatida hikoya, maqola, roman, monografiya, ma'ruza, hisobot kabilarni, maktab sharoitida esa o'qituvchi bergan savolga o'quvchilarning keng, mukammal og'zaki javobini, yozma bayon va inshoni olish mumkin.

"Insho" arabcha so'z bo'lib, "yaratish", "bino qilish", "qurish", "barpo etish", "ijod", "bayon", "tahrir" ma'nolarini anglatadi. Insho muallifning ma'lum bir mavzudagi bilim va tasavvurlarini, voqelikka munosabatini, mustaqil fikrini bayon qilish natijasida shakllanadigan yozma ish turidir.[3.13]

Insho bog'lanishli nutqni shakllantirishning muhim vositalaridandir. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni insho yozishga o'rgatish muhim metodik masalalardan biri sanaladi.

Insho ijodiy ish sanalar ekan, u o'quvchilardan faollik, qiziqish, fikr bildirishni talab qiladi. Chunki insho uchun material tayyorlash, uni tartibga solish, insho kompozitsiyasi va rejasi haqida o'ylash, mantiqiy bog'lanishni belgilash, so'z, so'z birikmalarini tanlash, gap tuzish va uni o'zaro bog'lash, imloni tekshirish kabi barcha murakkab ishlar o'quvchidan aqliy kuchini to'la ishga solish bilan birga, o'z ma'naviy faoliyatini boshqarish ko'nikmasini ham talab etadi.[4.331] Shu bois inshoning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati yanada oshadi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Boshlang'ich sinflarda o'tkaziladigan insholar o'quvchilar nutqini o'stirish, savodxonligini oshirish bilan bog'liq holda olib boriladi. Inshoda fikrning ravon va savodli ifodalanishiga ahamiyat beriladi. Insho yuzasidan ko'pincha jamoa bo'lib ish olib boriladi. Inshoning rejasi o'qituvchi rahbarligida tuziladi. Reja fikrni izchil bayon qilish, uni qanday boshlash, qanday davom ettirish va nimalar bilan yakunlashda o'quvchiga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda inshoning quyidagi turlaridan foydalaniladi.

1. O'qilganlar mazmuni asosida insho yozish. Inshoning bu turi tahlil va tarkib metodi bilan o'tkaziladi. Buning uchun hikoyaning har qaysi qismidagi voqealar yuzasidan fikr almashiladi va unga sarlavha tanlanadi. Sarlavhalardan reja sifatida foydalaniladi.

2. Kuzatish va sayohatlar asosida insho yozish. Bunda o'quvchilar kitobdan o'qiganlarini ko'rgan voqealari bilan bog'lab hikoya qiladilar va jamoa bo'lib tuzilgan reja asosida insho yozadilar.

3. Seriyali rasmlar asosida insho yozish. Buning uchun o'quvchilar hayotiga yaqin mazmuni unchalik murakkab bo'lmagan matn asosida yaratilgan bir necha rasm tanlanadi. Har qaysi rasmda tasvir qilingan voqealar aniqlanib ularga sarlavha tanlanadi. Sarlavhalardan reja sifatida foydalaniladi. Seriyali rasmlarga qarab insho yozishga ba'zi o'quvchilar birinchi rasm bilan ikkinchi rasm yoki ikkinchi rasm bilan uchinchi rasm o'rtasidagi bog'lanishni unutib qo'yadilar; bunday hollarda o'quvchilarga rasmni yana bir bor ko'rib, ular o'rtasidagi bog'lanishlarini aniqlash, unutilgan o'rinlarni xotirlab olish uqtiriladi.

4. Kinofilm, bolalar spektakli, bayram, sinfda yoki maktabda o'tkazilgan tadbirlar hamda bolalarning o'yinlari asosida insho yozish. Bunda kuzatilgan voqealar birma - bir bayon qilinmay balki ulardagi bolalarni qiziqtiradigan epizodni tasvirlash jarayoni belgilab olinadi. Uning rejasi tuziladi, reja asosida ma'lum tayyorgarlikdan so'ng insho yoziladi. Masalan, "Biz ta'tilni qanday o'tkazdik?", "Hayvonot bog'iga bordik" kabi mavzularda insho yozish mumkin.

Insho ustida ishlashda mavzu tanlash, uni rejalashtirishda esa og'zaki va yozma insho mavzusini belgilab olish muhim rol o'ynaydi.

O'quvchilar mavzuni yoritishga 1-sinfdan boshlab o'rganadilar. Ular mavzuga oid gap tuzadilar. Og'zaki va yozma insho ustida ishlashda mavzu berib uni yoritishni talab qilishdan tashqari, avval material to'plash va shu yig'ilgan materiallar asosida mavzuni shakllantirishni tavsiya qilish ham mumkin. Masalan, bahorda tabiatni kuzatish va material yig'ish tavsiya qilinadi: kuzatishlar "Bahor keldi" mavzusida insho yozish bilan yakunlanadi. Bunda o'quvchilar mavzuni to'liq yoritadilar.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Reja har qanday ogʻzaki yoki yozma hikoya qilishda juda muhim sanaladi. Zero, inson oʻz nutqi haqida oʻylab, asosiy gaplarini belgilab oladi. Insho uchun reja tuzish shuning uchun ham zarur. 1- sinfda reja rolini oʻqituvchi savollari, yaʼni soʻroq gaplar tarzidagi reja bajaradi; 2-sinfda reja jamoaviy oʻqituvchi rahbarligida tuziladi; 3-sinfda esa mustaqil tuziladi. Metodik adabiyotlarda boshlangʻich sinfdagi insholarning 3-5 talik reja asosida yozilishi tavsiya qilinadi.

Insho yozish uchun rasmi koʻrgazmalardan, tuzilgan rejadan foydalanish ancha yaxshi samara beradi. Bunda bolalarni ijodiy izlashga undash, oʻz kuzatuvlari asosida tasviriy vositalardan foydalanib, gaplar tuzishga oʻrgatish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, insho yozishga oʻrgatish jarayonida oʻquvchilarda mavzuni tushunish va yoritish, oʻz inshosini aniq fikrga boʻysundirish, material toʻplash, uni tartibga solish va joylashtirish, reja tuzish va reja asosida yozish, mazmunga va nutq vaziyatiga mos ravishda til vositalaridan foydalanish, yozgan inshosini takomillashtirish koʻnikmalari hosil qilinadi. Shuningdek, insho oʻquvchilarni mustaqil fikrlashga, bogʻlanishli nutqini shakllantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi.- Toshkent, 2020-yil 24-yanvar.
2. Umumiy oʻrta taʼlimning Davlat Taʼlim Standarti va oʻquv dasturi (Boshlangich taʼlim).- Toshkent, 2017.
3. Madayev O., Sobirov A. va b. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant.- Toshkent, "Turon zamin ziyo", 2017.
4. Qosimova K., Matchonov S. va b. Ona tili oʻqitish metodikasi.-Toshkent: "Nosir", 2009.